

STEATODA PAYKULLIANA O'RGIMCHAGINING BIOLOGIYASI.

**O'lmasboyeva Mushtariybonu Otabek qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti talabasi*

*mushtariy.otabek.33@gmail.com +998907821584 ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0006-4097-7264>*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Steatoda Paykulliana o'rgimchagining tarqalishi joylari, tashqi tuzulishi, yashash muhiti, ko'payishi, ularning kashf etgan olimlar hamda mansub oilasi haqida ma'lumot va tushunchalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Steatoda paykulliana, qizil belgi, feromonlar, qora hasharot, pilla, sefalotoraks, tajovuzkor, neyrotrop zahar.*

**БИОЛОГИЯ ПАУКА STEATODA PAYKULLIANA.**

**Аннотация:** *В этой статье представлена информация и сведения о распространении, морфологии, среде обитания, размножении паука Steatoda Paykulliana, ученых, которые его обнаружили, и родственном ему семействе.*

**Ключевые слова:** *Steatoda paykulliana, красная метка, феромоны, черный клоп, кокон, головогрудь, агрессивный, нейротропный яд.*

**BIOLOGY OF THE SPIDER STEATODA PAYKULLIANA.**

**Abstract:** *This article provides information and insights into the Steatoda Paykulliana spider distribution, morphology, habitat, reproduction, scientists who discovered it, and its related family.*

**Key words:** *Steatoda paykulliana, red mark, pheromones, black bug, cocoon, cephalothorax, aggressive, neurotropic poison.*

**KIRISH**

Soxta qoraqurt Steatoda paykulliana xuddi haqiqiy qoraqurt Latrodectus tredecimguttatusga o'xshash tana shakli va rangiga ega bo'lib, u ham ular kabi Theridiidae oilasiga kiradi. Ikkala o'rgimchak ham qora, ammo soxta qoraqurtning old tomonida va yuqori markazda sariq chiziq bo'ladi, haqiqiy qoraqurt o'rgimchakda esa qizil doiralar juda aniq ko'rinib turadi.

Steatoda Paykulliana tajovuzkor emas va juda kamdan-kam hollarda tishlaydi. Agar bu holat sodir bo'lsa, tishlagan joyi xuddi ari chaqqandek og'riydi, lekin og'riq tezda o'tib ketadi.

Ushbu o'rgimchak ko'pincha tunda harakatlanadi, shunga qaramasdan, tosh va taxtalarni ag'darganda ham uni osongina topish mumkin. [2]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Steatoda Paykulliana o'rgimchagi birinchi marta 1805-yilda fransuz araxnologi Charlz Valkener tomonidan tasvirlangan va shved entomologi va shoiri Gustav Pykull sharafiga nomlangan.

Soxta qoraqurtlar dunyo bo'ylab xususan, O'zbekistonda ham keng tarqalgan.

Steatoda Paykulliana odatda quruq yoki yarim quruq muhitda, o'tloqlarda, qumtepalarda, shiyponlarda, ohaktosh tepaliklari va karerlarda, tosh yoriqlarida va boshqa ochiq joylarda uchraydi. Farg'ona vodiysida bu o'rgimchakni dasht, adirliklardan tortib odamlarni yashash joylarigacha uchratish mumkin.

Asta-sekin o'rgimchaklarning yashash joyi kengayib, ularga xos bo'lmagan joylarda topilmoqda. Bu mavsumiy o'zgarishlar va oziq-ovqat qidirishdagi migratsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ular odamlarning yashash joylaridan qochishadi, shunga qaramay hovlilarda va noturar binolarda, bog'larda va tashlandiq joylarning zich butalarida, jarlarda ko'plab uchraydi.

Araxnologlarning ta'kidlashicha, erkaklar qarama-qarshi jinsga nafaqat tovush bilan ta'sir qiladi, balki maxsus kimyoviy moddalar(feromonlar)ni chiqaradi, shu orqali ular o'z juftlari bilan aloqa qiladi.



### **NATIJA VA MUHOKAMA**

O'rgimchaklar artropodlarning turlarga boy sinfidir. Ularning barchasi zaharli yirtqichlardir, ammo ularning hammasi ham odamlar uchun xavfli hisoblanmaydi.

Steatoda paykulliana o'rgimchagining tanasi sefalotoraks va katta, yumaloq qorindan iborat. Ularning ikki tomonida 4 ta juft oyoq-qo'l bo'lib, old va orqa juftliklar o'rta juftliklarga qaraganda uzunroq bo'ladi.[3]

Shuningdek ushbu qoraqurtning qornida qizil dog'lar bor, ular xavf haqida tabiiy ogohlantirish vazifasini bajaradi. Evolyutsiya jarayonida qorin bo'shlig'ida bu "maxsus belgi" yuqoridan aniq ko'rinishi uchun saqlanib qolingani. Qushlar qora rangdagi qizil belgilarni yaxshi ajratib turadilar, shuning uchun ular zaharli o'rgimchaklarni iste'mol qilishdan qochadi. [1]

Bir qarashda Steatoda paykullianani qoraqurt bilan adashtirish mumkin. Ammo ularning farqlari bor.

Steatodning chaqishi unchalik xavfli emas, u aridan kuchliroq emas. Shundan so'ng, pufakchalar va qizarish paydo bo'lishi mumkin, ular tezda yo'qoladi.

Qizil dog'lar, ba'zan oq chegara bilan, ular o'sishi bilan paydo bo'ladi, yangi tug'ilgan o'rgimchaklarda ular yo'q. To'liq balog'atga etganida, dog'lar yo'qolishi mumkin va urg'ochi ranglarning to'yinganligida baxmal kabi sof qora bo'lib qoladi.

Urg'ochilari erkaklaridan ancha katta bo'lib, tana uzunligi 2 sm gacha, erkaklarda esa 7 mm dan oshmaydi. Erkaklarini o'lchamlari kichikroq bo'lishi tezroq harakatlanishga hamda juftlashgandan keyin urg'ochilardan qochishga imkon beradi. [4]

### **XULOSA**

Yuqoridagilarga asosan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Steatoda paykulliana qorakurtga qaraganda keng tarqalgan. Ushbu o'rgimchak murakkab to'rni to'qib, faol ov qiladi. To'rni asosan toshlar yoki past o'simliklar atrofida joylashtiradi. Uning neyrotrop zahari hasharotlarni o'ldiradi.

Bu o'rgimchakning faqat urg'ochilari kichik sutemizuvchilar uchun xavfli hisoblanadi. Ular 0,3 mg miqdorida chiqaradigan zahar sichqon yoki kalamushning qoniga kirsa, o'limga olib kelishi mumkin. Zahar odamlar uchun halokatli emas, lekin zaharlangan joy 3 kungacha shishib, og'riqli bo'lishi mumkin, bu sizdagi hasharotlar chaqishiga bo'lgan reaksiyaga bog'liq.

Steatoda paykulliana to'rga tutilgan uchuvchi hasharotlar bilan oziqlanadi.

Urug'lantirilgandan so'ng, urg'ochi pillani to'qiydi, unga tuxum qo'yadi va uni to'rning chetiga bog'laydi va butun inkubatsiya davri davomida u tuxumnini himoya qiladi. Yosh o'rgimchaklar bir muncha vaqt onalari bilan qoladilar va keyin turli yo'nalishlarga tarqalib, mustaqil hayotga tarziga o'tadi.

Bu turdagi o'rgimchakning erkaklari 1-1,5 yil, urg'ochilari esa 5-6 yil umr ko'rishi aniqlangan.

Kichik o'rgimchaklar havoda harakatlanishi mumkin: ular shamol tomonidan ko'tarilgan uzun ipni chiqaradilar. Shu tarzda ular uzoq masofalarni bosib o'tishlari mumkin. Yovvoyi tabiatda qishlasha olmaydi, lekin ular 200 tagacha nasl olib, yerto'lalarda va boshqa binolarda qishlashadi va hatto ko'payadilar.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdurakhmanov G.M., Alieva S.V. Results of studying of fauna of spiders (Aranei) Republic Dagestan // South of Russia: ecology, development. 2011. 1: 44-66
2. Ponomarev A.V. Additions to fauna of spiders (Aranei) of the from south of Russia and Western Kazakhstan // Caucasian entomological Bull) 2007a. 4(1): 49-61.
3. Орлов Б. Н. Гелашвили Д. Б. Ибрагимов А. К. Ядовитые животные и растения СССР — М.: Высшая школа, 1990. — С. 46.
4. [https://infor24.ru/Стеатода\\_Пайкулля](https://infor24.ru/Стеатода_Пайкулля)